Karimov Ne'mat Xolyigitovich
Namangan davlat universiteti Jismoniy madaniyat fakulteti
o'quv ishlari bo'yicha dekan o'rinbosari
E-mail: karimovnemat@gmail.com

TALABALARDA TURIZMNING EKSTREMAL VA SPORT TURLARIGA OID KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISHDA TAJRIBA SINOV NATIJALARINING SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.8075244

Annotatsiya: Ushbu maqolada talabalarda turizmning ekstremal va sport turlariga oid ko'nikmalarni shakllantirishda tajriba sinov natijalarining samaradorlik ko'rsatkichlari tahlil qilingan. Olingan natijalar asosida xulosa va amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: o'quv dala amaliyoti, turizm, sport turizmi, ekstremal turizm, tajriba-sinov

KIRISH

Modul – bu tayanch o'quv reja tarkibidagi o'quv fanlari, dasturlar, amaliy, yutuq va kamchiliklarini baholash jarayoniga tayangan bo'lib, bunda u individual reja asosida to'liq yoki qisman mustaqil ishlaydi.

Modulli tajribalar, bilim va ko'nikmalarning yig'indisi bo'lib, talabalarninig aniq ish bajarishiga yordam beradi. Modulli texnologiya o'z faoliyatida texnologiya an'anaviy ta'lim berish jarayoniga muqobil tarzda vujudga kelgan, u pedagogika nazariyasi va amaliyotidagi to'plangan barcha tajribalarni ta'lim jarayonida hamda rivojlantiruvchi metodlarni o'zida mujassamlashtiradi. An'anaviy ta'lim jarayonining asosiy kamchiligi o'qituvchining talaba ustidan mutloq hokimlik maqomiga ega bo'lishidan iboratdir. Ta'lim berish hamda shaxsning rivojlanish qonuniyati esa o'quv jarayonini shunday tashkil qilinishini talab qiladiki, unda o'quvchi o'zi mustaqil ravishda bilim olishi, o'qituvchi esa darsni tashkil qilishi, talabalarga maslahat berish hamda uni nazorat qilib turishi lozim. Modulli texnologiya mana shu vazifani bajaradi, ya'ni o'quv jarayonida o'qituvchi va o'quvchi o'rnini keskin almashtirish imkonini beradi [2].

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ta'kidlaganidek: Demokratik jamiyatda barcha yoshlar, umuman, har bir inson erkin fikrlaydigan etib tarbiyalanadi. Agarda yosh avlod erkin fikrlashni o'rganmasa, berilgan ta'lim samarasi past bo'lishi mumkin. Mustaqil fikrlash ham katta boylik hisoblanib, modullashgan dasturlar o'qituvchilar tomonidan o'quv materialini rejalashtirish emas, balki o'quvchilarning mazkur mavzuni mustaqil va ijodiy o'rganishi bo'yicha o'quv faoliyati dasturi hisoblanadi.

O'quv jarayonida modul tizimi o'zgarmas bo'lib, har bir modul o'ziga tegishli kichik maqsadni ifodalaydi. Bu maqsadni amalga oshirishda esa tegishli sharoit uchun eng ma'qul deb topilgan yo'llar, usullar, vositalardan foydalanish ko'zda tutiladi. Demak, modulda belgilangan maqsadni o'zgartirmagan holda uni to'liq amalga oshirishni ta'minlovchi, o'zaro farq qiluvchi turli yo'llar, usullar, vositalar qo'llanilishi mumkin. Jumladan, biror bir fikrni tushuntirish jarayonini bir modul yordamida hisoblash ham yoki bu jarayonni bir nechta bo'laklarga ajratib, ularning har birini alohida modullar deb hisoblash ham, shuningdek, bitta emas, bir nechta o'zaro bog'liq fikrlarni tushuntirish jarayonini bir butun holda bitta modul deb hisoblash ham mumkin. Modulli o'qitish jarayoni o'quv predmetining mavzulari bilan mos kelishi lozim. Lekin an'anaviy o'qitish usulidan farqli o'laroq, modulli o'qitish jarayonida o'quvchilarning barcha faoliyati (avval o'tilgan mavzularning o'zlashtirilganligi, topshiriqlar ni bajarilishi, darsdagi ishtiroki va faolligi, ijodkorligi, darsning kirish bosqichidan yakunlovchi xulosaga qadar bo'lgani ta'lim-tarbiya darajasi inobatga olinib, baholanadi. Modul xarakteriga ega bo'lgan o'quv ja-

rayoninigina samaradorligini baholash, natijasini o'lchash mumkin.

Modulli texnologiya yirik modullarni loyihalashtirishdan boshlanadi. Buning uchun, bitta katta mavzu yoki bo'lim tanlab olinadi va yirik modullarga tizimli ravishda ajratiladi. So'ngra ajratilgan har bir yirik modul bo'yicha uning o'zigagina taalluqli bo'lgan faoliyatning mazmuni va ta'sir doirasi aniqlanadi hamda shu asosda modulli texnologiyaning maqsadi belgilanadi. Yirik modullardan foydalanishni amalga oshirish hamda bu modullarni o'zlashtirishda oddiydan murakkabga qarab borish, ushbu texnologiyaning samaradorligini ta'minlaydi [4].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Turizm haqidagi manbalar ilk bor XX asrning oxiri XXI asrning boshlarida xorijlik olimlar R.Davidov, A.Drozdov, V.Xrabovchenko, T.Bochkaryova, L.Yegorenkov va A.Taksanovlarning asarlarida to'xtalib o'tilgan.

O'zbekistonda turizmni marketing, menejment, iqtisodiy, ekoturizm, sport, ekstremal, jismoniy tarbiya, ta'lim-tarbiya jarayonida sayohatga chiqish, sayyohlik-o'lkashunoslik tadbirlarini tashkil etishning nazariy asoslari bo'yicha O.X.Hamidov, N.Tuxliev, T.Abdullaeva,M.R.Usmonov, A.N.Nigmatov, N.T.Shamuratova va M.Xoshimov, K.D.Yarashev, R.Abdumalikov, F.Q.Ahmedov, R.A.Qosimova, E.O.Turdiqulov N.O'.Nishonova, I.Sh.Ismatov, B.Boyboboev, D.Mamajonov va boshqa olimlar tomonidan o'rganilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) davlatlaridagi olimlardan E.Yu.Daurenov, M.R.Verba, S.T.Golitsin, V.B.Titov, I.S.Verta, I.D.Zverev, A.N.Zaxlebniy, I.T.Ponomareva, I.T.Suroveginalar turizmning sport va sog'lomlashtirish, ekstremalrlarini rivojlantirish yuzasidan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan.

Xorijiy mamlakatlar olimlaridan J.C.Smith, L.F.Schmore, A.J.Suvan, Ch.M.Geesteranus, J.Randers, A.W.Wiecke kabi olimlar tomonidan talabalar o'rtasida turistik sayohatlarni tashkil etishda turizmning sport va ekstremal turlaridan foydalanib sport tadbirlarni tashkil etishning afzallik jihatlari o'rganilgan.

Biroq, hozirgacha turizmning ekstremal va sport turlari tadqiqot predmeti sifatida o'rganilmagan. Xususan, oliy ta'lim muassasalarining tabiiy va ijtimoiy- gumanitar fanlar yo'nalishlarida tahsil olayotgan talabalar tomonidan tashkil etiladigan o'quv dala amaliyotlari davomiyligida turizmning ekstremal va sport turlaridan foydalanish, turistik imkoniyatlarini aniqlash, marshrutlarni yakka va kompleks ravishda olib borish masalalari tadqiq etilmagan.

Tadqiqot jarayonida nazariy (qiyosiy, tahliliy), diagnostik (kuzatish, suhbat, so'rovnoma), pedagogik tajriba-sinov, matematik -statistik tahlil, umumlashtirish usullardan foydalanilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ilmiy tadqiqot doirasida bajarilgan dissertatsiya ishining samarali yakunlanishida tajriba-sinov ishlarining ilmiy-pedagogik va tashkiliy-metodik jihatdan to'g'ri tashkil etilishi muhim ahamiyatga ega. Shu sababli oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan talabalar o'quv jarayonining 1-2-kurslardagi yakunida tashkil etiladigan o'quv dala amaliyotlari doirasida kuzatishga tajriba-sinov ishlari samarali metodik jihatdan to'g'ri tashkil etilishiga e'tibor qaratilgan. Tajriba-sinov ishlarining maxsus dastur asosida tashkil etilishi esa ularning muvaffaqiyatli va samarali yakunlanishini kafolatlaydi. Mazkur fikrga tayangan holda tadqiqotni olib borish davrida dastlab "Dala amaliyotlarini o'tkazish" yuzasidan maxsus dastur ishlab chiqish nazarda tutilgan. Tajriba-sinov dasturini tayyorlashda quyidagilar asosida amalga oshirish taklif etiladi:

taklif qilinayotgan yangilikning dolzarbligini asoslash;

tajriba-sinov obektini aniqlash;

tajriba-sinov maqsadini belgilash;

tajriba-sinovni o'tkazish metodlarini tahlil qilish;

tajriba-sinov muddati va bosqichlarini aniqlash;

kutilayotgan natijalarni baholash mezonlarini ishlab chiqish.

Dastlab tajriba-sinov ishlarining maqsadi, bosqichlari, ularda hal etilishi lozim bo'lgan vazifalar aniqlab olinib, kutiladigan natijalarga izoh berildi. Tajriba-sinov ishlarining asosiy maqsadi talabalar tomonidan tashkil etiladigan kuzatishga o'rgatishga imkon beruvchi pedagogik imkoniyatlarni o'rganish orqali zarur bilim, amaliy ko'nikma va malakalar bilan qurollantirishdan iborat. O'quv manbalarining maqsadiga ko'ra tanlanganligi o'zlashtirish darajasidagi faoliyatni samarali tashkil etishni ta'minlashda namoyon bo'ladi.

Agar mazkur o'quv materiallarini o'zlashtirish natijasida talbalarda muayyan ko'nikma va malakalar hosil bo'lsa,bu tipdagi o'quv materialining samaradorlik darajasi, didaktik qiymati yuqori bo'ladi. Shuning uchun ham talabalarning tabiatga oid bilim, ko'nikma va malakalarini samarali rivojlantirishga erishishni tashkil etish maqsadida yangi o'quv modullarini tanlash lozim.

Har bir yirik modul o'z tarkibiga boshqa bo'laklarga bo'linmaydigan kichik modullarni qamrab oladi. Modulli dasturda har bir kichik modulning didaktik maqsadi, mavzuni o'rganish bosqichlari, talabalar tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan o'quv materiali yuzasidan topshiriqlar, uni bajarishga oid ko'rsatmalar, talabalar bilimini nazorat qilish va baholash yo'llari ketmaket bayon etiladi. Modulli o'qitish jarayonida o'quvchi o'zini boshqarish, mustaqil ishlash, ijodiy fikrlash, o'rtoqlari hamda o'qituvchiga murojaat qilish va o'z vaqtini taqsimlashni o'rganadi.

Birinchi kichik modulning maqsadi o'tilgan mavzuni talabalar tomonidan o'zlashtirilganlik darajasini og'zaki savol javob yordamida aniqlash, baholash va ularni mustaqil vazifalarni bajarishga o'rgatishdan iboratdir. Har bir o'quvchiga yangi mavzu bo'yicha tuzilgan modul dasturi hamda alohida tarqatma materiallari tarqatiladi.

Topshiriqni bajarishdan avval talabalar guruhlarga ajratiladi. Yangi mavzu bo'yicha ularga tarqatma material berilib, modulning didaktik maqsadi bilan tanishtiriladi. Talabalar tarqatma materialda berilgan yangi mavzuni diqqat bilan o'qib, modulda berilgan savollarga guruhdagi talabalar bilan hamkorlikda javob topishlari lozim. Har bir guruh a'zolari bilan alohida savol javob o't-kazilib, o'qituvchi va talabalar javoblaridagi kamchiliklarni to'ldiradi va o'z vaqtida baholash mezoni asosida o'qituvchi tomonidan baholanadi.

Uchinchi kichik modul ijodiy fikrlashini takomillashtirish, yozma nutqini o'stirishni o'z ichiga oladi. Oliy ta'limning tabiiy fan sohasidagi talablari tarqatma materialda berilgan matndan Nima? Nimalar?, Kim? Kimlar? so'rog'iga javob bo'lgan so'zlarni topib berilgan ko'rsatma katakchalariga bu topshiriqni mustaqil bajarishlari kerak bo'ladi.

To'rtinchi kichik modulning maqsadi amaliyot davrida jamoa bo'lib harakat qilish, ularda topqirlik, izlanuvchanlik xislatlarini shakllantirish, tabiat va atrof muhitga oid mavzulardagi topshiriqlarni bajarish ko'nikmasini hosil qilishdan iboratdir. Guruhdagi talabalar hamkorlikda modulda berilgan mavzudagi krossvordni topshiriq sifatida o'z vaqtida bajarish holatlari pedagog xodim tomonidan nazorat qilinadi. Topshiriqlar yuzasidan bahs munozara o'tkaziladi. Amaliyot o'qituvchisi talabalar tomonidan bajarilgan topshiriqlarni kamchiliklarini to'ldirib, tegishli ko'rsatmalar berib, ularni baholaydi.

Beshinchi kichik modul yangi mavzu yuzasidan nazariy bilimlarni mustahkamlash yuzasidan test savollari yordamida talabalar bilimini aniqlash uchun talabalarda mustaqil va ijodiy ishlar ko'lamini takomillashtirishni o'z ichiga qamrab oladi. Guruhdagi talabalar hamkorlikda modulda berilgan test savollarining to'g'ri javobini belgilashlari kerak. Amaliyot o'qituvchisi tomonidan talabalarni bilim olish olingan javoblari yuzasidan munozaraga yo'llaydi, javoblardagi kamchiliklarni tuzatib, talabalarni baholab boradi. Yakunlovchi kichik modul. Bunda talabalar modul dasturi haqida o'z fikrlarini bayon etadilar, o'quvchilar modulda ko'zlangan

maqsadga qay darajada erishganliklari, o'quv materialni puxta o'zlashtirishlari uchun ularga nima yordam berganligi haqida o'z fikrlarini bildiradilar va baxs munozara qiladilar. Modul tizimining yakuniy qismida o'quvchilarga o'quv reja asosida o'tilgan har bir mavzuga oid uy vazifalari beriladi. Bunday modulni o'quv jarayonida maqsadli foydalanish natijasida:

nazariy bilimlar asosidagi maqsadni aniq bo'lishiga erishish;

tabiiy fan sohasidagi talabalar tomonidan bajarilgan topshiriqlar o'z vaqtida baholab boriladi;

talabalarning mustaqilligi va ijodkorligi boyitiladi;

talabalarda bir biriga hurmat va e'tibor hissi paydo bo'ladi.

Talabalarga bilim shaklida taqdim qilingan ta'lim modullari jamiyat a'zolarining ijtimoiy tajribasida sinovdan o'tgan bilimlarga tayangan holda umumta'lim maktab o'quvchilariga nisbatan rivojlantiruvchi xarakter kasb eta oladi. Talabalar tomonidan o'zlashtirilgan mavzular asosida olingan bilimlarni o'zida mujassamlantirgan ta'lim moduli muayyan bir pedagogik texnologiyaning tarkibiy qismi sifatida amalga oshiriladi. Tabiiy fan sohasida ta'lim olayotgan talabalarga nazariy bilim berishga yo'naltirilgan modulli texnologiyalarni o'z maqsadiga ko'ra tanlanishi, sohaga oid bilim, atama va tushunchalarni turli shakldagi o'quv-biluv jarayonida taqdim etilgan bilim va tushunchalarni jadal o'zlashtirish imkoniyati tug'iladi.

Tabiatga oid bilimlarga intellektual, hamda amaliy ko'nikma va malakalarni rivojlantirish, o'rganilayotgan sohaga oid bilimlarga nisbatan o'quvchilarda ijobiy munosabat va qiziqishning hosil bo'lishini ta'minlaydi. Tushunchalarni o'rgatishga yo'naltirilgan o'quv materiallari o'quvchilarning o'zini bilim va tushunchalarni o'rgatishga yo'naltirilgan o'quv-biluv jarayonini boshqaruvchi asosiy sub'ekt sifatida faoliyat ko'rsatishlariga imkon berishi lozim. Har qanday o'quv manbalarini tanlash va muayyan yo'nalishdagi ta'limiy topshiriqlarni izchil tizimini belgilash uchun, avvalambor, o'quv materialini o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilish darajasini, shuningdek, ko'zda tutilgan natijani o'quvchilarning yoshi, ruxiy va fiziologik imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda aniq belgilab qo'yilishi maqsadga muvofiqdir.

Amaliyot davrida jismoniy va aqliy rivojida kattalar bilan bo'ladigan muloqot, hamda o'zaro munosabat muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun yuqorida ta'kidlab o'tgan tarzda olib borilgan darslarda o'quvchilar orasida o'zining alohida o'rni bor ekanligini his eta boradi. Shu bilan bir qatorda u atamalar va ko'nikmalarni egallab boradi.Ta'limning yangi bosqichida o'quv dasturlaridan keng o'rin olayotgan ekologik ta'lim berish, insonning moddiy va ma'naviy ehtiyojlar, hamda jamiyat talablarini qondirishga doir bilimlarini ko'proq amaliy ishlar bilan bog'lash maqsadga muvofiqdir. Kuzatishlar shuni ko'rsatdiki, amaliyotni bajarish jarayonida bilim va ko'nikma hosil qilish uchun dars davomida vaqtdan unumli foydalanib, ularning zerikishi, chalg'ishiga yo'l qo'ymasdan, har xil metodlarni qo'llagan holda nostandart vaziyatlarni vujudga keltirish maqsadga muvofiq. Shu bilan bir qatorda tanlash imkoniyati, unda nimalarga e'tibor berish lozimligi, o'zgalarga yon bosish kabi haqiqiy sharqona odatlar, ma'naviyatimiz asoslari bilan ham tanishtirib, boriladi.

Tajriba-sinov natijalari aniq bo'lish maqsadida tajriba guruhlardagi talabalar soni 257 ta, nazoratdagisi esa 255 ta qilib olinib, tajriba o'tkaziladigan sinflarda o'quv materiallarining didaktik ishlanmalari tayyorlandi. Bu o'quv materiallari bilan tajriba-sinov ishlarini amalga oshiradigan o'qituvchilar tayyorgarlikdan o'tkazildi. Talabalarning bilim darajasini aniqlash maqsadida ularga turli mashqlar, og'zaki nutqni mustahkamlash uchun savol-javoblar, krasvord va test topshiriqlarni taqdim qilindi. Talabalarni bilim darajasini aniqlash maqsadida ko'p balli tizim asosida baholash metodidan foydalandik. Har bir talabaga 10 tadan topshiriq berildi. Bunda shartli ravishda olingan to'g'ri

javoblarga quyidagicha baho mezonini belgilandi: 1) 1-2 tagacha bo'lgan savolga – 2 baho; 2) 3 tadan 5 tagacha savolga – 3 baho; 3) 6 tadan 8 tagacha savolga – 4 baho; 4) 9 tadan 10 tagacha savolga – 5 baho.

Talabalarga taqdim qilingan topshiriqlarni umumlashtirish natijasida ijtimoiy yo'nalishdagi Andijon viloyatida joylashgan Andijon davlat universiteti hamda Farg'ona viloyatidagi Farg'ona davlat universitetining talabalarining o'quv dala amaliyotlarini amaliy bajarish darajasini baholash uchun maxsus dastur asosida tuzilgan tajriba-sinov ishlari o'tkazildi. Mazkur jarayonning dastlabki bosqichida quyidagicha holatda bo'lganligi aniqlandi:

Andijon, Farg'ona va Guliston davlat universitetlarining tabiiy fanlar fakultetlari tarkibiga kiruvchi talabalarni bilimdonlik darajasini aniqlash maqsadida 10 ta topshiriq tanlab olindi. Bu savollarga nazorat guruhlardagi 60 ta talabalardan 8 nafari 9 tadan 10 tagacha savolga (5 baho), 16 nafari 6 tadan 8 tagacha savolga (4 baho), 28 nafari 3 tadan 5 tagacha savolga (3 baho), 8 nafari 2 tagacha savolga (2 baho) to'g'ri javob bergan. Tajriba guruhlardagi 61 ta talabadan esa 10 nafar o'quvchi 9 tadan 10 tagacha savolga (5 baho), 17 tasi 6 tadan 8 tagacha (4 baho), 24 tasi 3 tadan 5 tagacha savolga (3 baho) va 10 tasi 2 tagacha savolga (2 baho) to'g'ri javob bergan. Mazkur jarayon yuqorida qayd etilgan universitetlarning 2-kurs talabalari uchun ham 10 ta topshiriq berildi. Shundan nazorat guruhlaridagi 64 talabadan 10 nafari 5 baho, 21 tasi 4 baho, 27 tasi 3 baho va 6 ta talaba 2 baho olgan. Tajriba guruhi bo'yicha 65 talabadan 11 nafari 5 baho, 19 ta talaba esa 4 baho, 28 nafari 3 baho va 7 nafari 2 baho olib bajargan.

Tajriba sinov tarzida belgilab olingan talabalar uchun ham topshiriqlar soni 10 tani tashkil etib, shundan nazorat siflarda 10 ball olgan talabalar soni 11 nafarni, 6 ball olgan talabalar soni 18 tani, 3 ball olgan talabalar soni 30 tani, 1 ball olgan talabalar soni zsa 9 tani tashkil etdi. Tajriba guruhlarda esa 67 talabadan 9 tasi 10 ball, 19 tasi 6 ball, 33 tasi 3 ball va 6 tasi 1 ball olgan.

Oliy ta'limning yuqori kurslari uchun ham 10 ta topshiriq berildi. Shundan nazorat guruhlardagi 63 ta talabadan 5 baho olgan talabalar soni 4 nafarni, 4 baho olgan talabalar soni 12 nafarni, 3 baho olganlarning soni 33 nafarni, 2 baho olgan talabalarning soni esa 14 tani tashkil qilgan. Tajriba guruhlarda esa 64 talabadan 6 nafar talaba 5 baho, 11 nafar o'quvchi 4 baho, 35 nafar talaba 3 baho, 12 nafar talabalar 2 baho olganligini ko'rishimiz mumkin.

Tajriba sinov davrida talabalarning his tuyg'ular nozik ichki bog'lanishlar, munosabatlar, murakkab mexanizmlar natijasida tekshiriladi.

1-jadval

O'quv dala amaliyotini bajarishdagi bilim va ko'nikmalarni tajribaning boshida aniqlash natijalari

Nazorat guruhlari	Talabalar soni	Topshiriq soni	Javoblar			
			5 baho	4 baho	3 baho	2 baho
Nazorat guruhi						
1-kurs (A guruh)	60	10	8	16	28	8
1-kurs (V guruh)	64	10	10	21	27	6
2-kurs (A guruh)	68	10	11	18	30	9
2-kurs (V guruh)	63	10	4	12	33	14
Jami	**255**	**40**	**33**	**67**	**118**	**37**
Tajriba guruhi						
1-kurs (A guruh)	61	10	10	17	24	10
1-kurs (V guruh)	65	10	11	19	28	7
2-kurs (A guruh)	67	10	9	19	33	6
2-kurs (V guruh)	64	10	5	11	35	12
Jami	**257**	**40**	**35**	**66**	**120**	**35**

Yuqorida keltirilgan tajriba-sinov natijalaridan shunday xulosa qilish mumkinki, nazorat guruhlardagi 255 ta talabadan 9 tadan 10 tagacha topshiriqqa to'g'ri javob berganlar soni 33 ta, 6 tadan 8 tagacha topshiriqqa to'g'ri javob berganlar 67 ta, 3 tadan 5 tagacha topshiriqni to'g'ri bajarganlar 118 ta, 2 tagacha topshiriqni to'g'ri bajarganlar 37 nafarni tashkil qilgan. Tajriba guruhlardagi 257 ta talaba 9 tadan 10 tagacha topshiriqqa to'g'ri javob berganlar 36 ta, 6 tadan 8 tagacha topshiriqqa to'g'ri javob berganlar 66 ta, 3 tadan 5 tagacha topshiriqqa to'g'ri javob berganlar 120 ta, 2 tagacha topshiriqqa to'g'ri javob berganlar soni 35 tani tashkil qilgan.

Shunday ekan, o'quv dala amaliyoti davrida olib borilgan tajriba sinov ishlarini 2-jadval asosida ham ko'rishimiz mumkin.

Tajriba-sinov yakunida tajriba guruhlaridagi talabalarning bilim darajasi nazorat guruhidagi talabalarnikidan ancha yuqoriligi kuzatildi. Oliy ta'limning 1-kurs (A guruh) talabalarning bilimlarni o'zlashtirish darajasi tajriba-sinov yakunida aniqlash maqsadida, ularga 10 ta topshiriq berildi. Bu savollarga tajriba guruhlardagi 60 nafar talabalarning 10 tasi 5 baho, 14 tasi 4 baho, 32 tasi 3 baho va 4 tasi 2 baho oldi. Tajriba guruhlardagi 61 ta talabadan esa 5 baho olganlar 36 nafar, 4 baho olganlar 12 nafar, 3 baho olganlar 10 nafar, 2 baho olganlar esa 3 nafarni tashkil qilgan.

1-kurs (V guruh) talabalari uchun mo'ljallangan 10 ta topshiriqni nazorat guruhlardagi 64 o'quvchidan 15 nafari 10 ball, 26 nafari 6 ball, 21 nafari 3 ball olishga muvaffaq bo'ldi. 2 ta talaba faqat bitta savolga to'g'ri javob berdi. Tajriba guruhidagi 65 talaba uchun quyidagi natijalarni qo'lga kiritdi: 5 baho olganlar 32 ta, 4 baho olganlar 26 nafar, 3 baho olganlar 6 tani tashkil qildi. 1 ta talaba 2 baho oldi.

2-kurs (A guruh) talabalari uchun ham topshiriqlar soni 10 tani tashkil etib, shundan nazorat guruhlarida 5 baho olganlar 13 nafar, 4 baho olganlar 22 nafar, 3 baho olganlar 27 nafar, 2 baho olganlar 6 nafarni tashkil etdi. Tajriba guruhlarda esa 67 talabalardan 35 tasi 5 baho, 23 tasi 4 baho, 8 nafari 3 baho, 1 nafari 2 baho bilan baholangan.

2-kurs (A guruh) talabalari uchun berilgan 10 ta topshiriqdan nazorat guruhlardagi 63 ta talabaning 6 nafari 5 baho, 14 nafari 4 baho, 33 nafari 3 baho va 10 nafari esa 2 baho olishga erishdi. Tajriba guruhlardagi 64 talaba bu topshiriqlarni quyidagicha bajargan: 5 baho 34 nafar, 4 baho 24 nafar, 3 baho 5 nafar, 2 baho olgan talaba 1 nafarni tashkil etdi.

2-jadval

O'quv dala amaliyotini bajarishdagi bilim va ko'nikmalarining tajriba-sinov ishlari boshidagi ko'rsatkichi

Guruh	Talaba soni	Javoblar			
		5 baho	4 baho	3 baho	2 baho
NG	255	33	67	118	37
TG	257	36	66	120	35

Yuqoridagi natijalarni umumlashtirib quyidagi xulosaga kelish mumkin. Tajriba-sinov yakunida berilgan topshiriqlarga 255 nafar nazorat guruhidagi talabalardan 44 nafari 9 tadan 10 tagacha topshiriqni, 76 nafari 6 tadan 8 tagacha topshiriqni, 113 nafari 3 tadan 5 tagacha topshiriqni, 22 nafar talabalar esa 2 tagacha topshiriqni to'g'ri bajardilar.

Tajriba guruhidagi 257 nafar talabadan esa 9 tadan 10 tagacha topshiriqni to'g'ri bajarganlar 137 nafarni 6 tadan 8 tagacha topshiriqni to'g'ri bajarganlar soni 85 nafari 3 tadan 5 tagacha topshiriqni to'g'ri bajarganlar 29 nafarni, 2 tagacha topshiriqni to'g'ri bajarganlar esa 6 nafarni tashkil etgan.

Tajriba-sinov natijalari tahliliga ko'ra, tadqiqot jarayoniga jalb etilgan nazorat guruhida talabalarga nisbatan bilim, ko'nikma va malakalar shakllanganligi aniqlandi. Bu holatni ob'ektiv baholash uchun statistik tahlil amalga oshiriladi, aniqlashtirgan xulosagina tajriba-sinov ishlarining ilmiy, pedagogik, texnologik va metodik jihatdan to'g'ri samarali olib borilganini tasdiqlaydi.

3-jadval

O'quv dala amaliyotini bajarishdagi bilim va ko'nikmalarning darajasini tajriba-sinov ishlaridagi yakuniy natijalari

Nazorat guruhlari	Talabalar soni	Topshiriq soni	Javoblar			
			5 baho	4 baho	3 baho	2 baho
Nazorat guruhi						
1-kurs (A guruh)	60	10	10	14	32	4
1-kurs (V guruh)	64	10	15	26	21	2
2-kurs (A guruh)	68	10	13	22	27	6
2-kurs (V guruh)	63	10	6	14	33	10
Tajriba guruhi						
1-kurs (A guruh)	61	10	36	12	10	3
1-kurs (B guruh)	65	10	32	26	6	1
1-kurs (V guruh)	67	10	35	23	8	1
1-kurs (S guruh)	64	10	34	24	5	1

4-jadval

Tajriba-sinov ishlarining boshi va yakunida o'quv dala amaliyotlarini bajarish yuzasidan bilimdonlik ko'rsatkichlari

Guruh	Talabalar soni	JAVOBLAR							
		5 baho		4 baho		3 baho		2 baho	
		Boshi	Yakuni	Boshi	Yakuni	Boshi	Yakuni	Boshi	Yakuni
Nazorat	255	33	28	67	51	118	130	37	46
Tajriba	257	36	105	66	93	120	54	35	5

Bu jadvaldan quyidagi jadvalni hosil qilamiz:

5-jadval

Talabalar o'quv dala amaliyotini bajarish darajasining yakuniy natijalari

Guruhlar	Talabalar soni	Javoblar			
		5 baho	4 baho	3 baho	2 baho
Nazorat	255	28	51	130	46
Tajriba	257	105	93	54	5

Ta'kidlovchi tajriba-sinov davrida ham statistik tahlilni amalga oshirish uchun Styudent va Pirson metodlari tanlandi. Mazkur metod ikki guruhda qayd etilgan ko'rsatkichlarni aniqlash va ob'ektiv baholash imkoniga ega. Matematik statistik metodning mohiyatiga ko'ra dastlabki bosqichdagi kabi tajriba va nazorat guruhlarida qayd etilgan 1-2 tanlanmalar sifatida belgilanib yuqori, o'rta va past darajalar bo'yicha variatsion qatorlarni hosil qilish lozim bo'ldi.

Yuqorida keltirilgan diagrammalarda nazorat va tajriba sinov guruhlaridagi talabalarning bilim darajalari o'zaro taqqoslangan. Shunga ko'ra tajriba guruhlarida talabalarning olgan baholari salmog'i nazorat guruhlaridagi talabalar olgan baholar salmog'idan qat'i nazar yaxshiroq ekanligi aks etgan.

Olingan natijalardan o'qitish samaradorligini baholash mezonining birdan kattal-

igi bilan va bilish darajasini baholash mezonini noldan kattaligini orqali ko'rish mumkin. Ma'lumki, tajriba guruhlardagi talabalarning o'zlashtirishlari nazorati guruhlardagi talabalarning o'zlashtirishi yuqoriligi aniqlandi. Demak, ta'lim jarayonida tashkil etiladigan o'quv dala amaliyotlari bilan bog'liq bo'lgan bilimlarni shakllantirish yuzasidan o'tkazilgan tajriba-sinov ishlari samarali ekan.

Bu bosqich natijalariga qaraydigan bo'lsak, talabalarni bilimlariga, intellektual salohiyatiga, o'zlashtirishlariga baho berishda berilgan topshiriqni qay darajada bajarganliklariga, og'zaki nutqiga, idrokiga, mustaqil fikrlash qobiliyatlarini faolligini hisobga olib, o'zlashtirish foizlarida aks ettirilgan. Dastlab o'tilgan master klass darslarida talabalarga yangiliklarni og'zaki usul yordamida tushuntirish borasida qiyinchiliklar tug'dirishi tabiiy.

Oliy ta'lim muassasalarining tabiiy fan vakillari tomonidan tashkil etiladigan o'quv dala amaliyotlari zamonaviy o'quv texnika vositalari, ko'rgazmali qurollar asosida o'quv amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish natijadorligida talabalarning mustaqil fikrlashlari zaminida tabiatga e'tiborli bo'lish, suv, tuproq, o'simlik va hayvonot dunyosiga bo'lgan munosabatni o'zgartirish kabi bilimlarni mustahkamlash hamda rivojlantirishga xizmat qilishi darkor.

Bu bosqich natijalariga qaraydigan bo'lsak, talabalarning bilimlari, intellektual salohiyatiga, o'zlashtirishlariga baho berishda berilgan topshiriqni qay darajada bajarganliklariga, og'zaki nutqiga, idrokiga, mustaqil fikrlash qobiliyatlarini faolligini hisobga olib, o'zlashtirish foizlarida aks ettirilgan. Mazkur muammoni bartaraf etish maqsadida zamonaviy o'quv texnika vositalari, ko'rgazmali qurollar va interfaol o'yinlarni tashkil etish lozim. Bu talabalarning mustaqil fikrlash borasidagi qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

XULOSA

Hozirgi kunda oliy ta'lim tizimini isloh qilish, yanada rivojlantirish, takomillashtirish, o'z sohasining etuk mutaxasisi sifatida tayyorlashda pedagogik, ishlab chiqarish va dala amaliyotlarini nazariy bilimlar asosida tashkil etish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Shunday ekan, ilmiy tadqiqot doirasida olib boriladigan tajriba-sinov ishlarini ham tashkil etish davr talabi demakdir. Bu jarayonda dastlab tajriba-sinov ishlarining maqsadi, o'z oldiga qo'ilgan vazifalarni aniqlanishi, talabalarni o'quv dala amaliyotida kuzatish ishlarini olib borish, o'rgatishga oid bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish hamda boyitishga yordam beruvchi maxsus metodikaning shakllantirilganligi mazkur jarayonning samarali tashkil etilishini kafolatladi.

Tajriba-sinov ishlarini muayyan dastur asosida tashkil etilgan bo'lib, jarayonning samaradorligi tajriba sinov ishlarini kuzatishga, o'rgatish borasidagi nazariy bilim hamda amaliy ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlarini ta'minladi. Tadqiqot negizida tashkil etilgan tajriba-sinov ishlari quyidagi metodik jihatdan asoslanib, o'quv dala amaliyoti uchun kerakli bo'lgan mulklar to'plami nazariy bilimlar darajasida o'rganilgan;

Yakuniy tajriba bosqichida tajriba va nazorat guruhlarida sinovgacha va sinovdan keyin olingan natijalarning tahlili kutilgan natijaga erishganlikni tasdiqladi. Tajriba guruhining ishtirokchilari tabiiy fanlar yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar kuzatish, marshrutlarni tanlash va amaliyot bosqichlariga oid nazariy bilim darajasi sezilarli darajada o'sishiga erishilgan.

Oliy ta'lim muassasalarining tabiiy fan vakillari tomonidan tashkil etiladigan o'quv dala amaliyotlari zamonaviy o'quv texnika vositalari asosida o'quv amaliy mashg'ulotlarni tashkil etilgan. Bu bosqich natijalarida talabalarning bilimlari, intellektual salohiyatiga, o'zlashtirishlariga baho berishda berilgan topshiriqni qay darajada bajarganliklariga, og'zaki nutqiga, idrokiga, mustaqil fikrlash qobiliyatlarini faolligini hisobga olib, o'zlashtirish foizlarida aks ettirilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirzamaxmudov O.T. Abdivosieva S.T. O‘lkashunoslik // O‘quv-uslubiy qo‘llanma. 5111700-Boshlang‘ich ta’lim metodikasi. Bakalavriyat ta’lim yo‘nalishi uchun.-Namangan, 2020. –3,5,6,7,9 b.
2. Mirhayitova S., Akbarova M. Modulli texnologiya. Boshlang‘ich ta’lim tizimi uchun qo‘llanma. – Toshkent: O‘qituvchi, 2004 – №1 – 18 b.
3. Nigmatov A. N. Chodaksoy tabiatini asrang. Ilmiy ommabop qo‘llanma. -Namangan: Ibrat,2013.-32 b.
4. Ravshanov M.A., Kamolov B.X. Yangiqo’rg’on tumanidagi dam olish maskanlari va ularning aholiga xizmat ko’rsatish darajasi. // Namangan davlat universiteti axborotnomasi. -Namangan, 2013.–B.76
5. Титов В.Х. Туристко-краеведческие кружки в школе. –М.: “Просвещение”, 1988.
6. Umaraliev Sh.T.Iqtisodiyot va turizm turlariga umumiy tarif // Namangan davlat universiteti axborotnomasi. -Namangan, 2011.–B. 97
7. G‘aybullaev N., Yodgorov R., Mamatqulova R. Pedagogika. Oliy o‘quv yurti talabalari uchun qo‘llanma. – Toshkent: 2005. – 76 b.
8. Xalimov Z. O‘zbekistonda rekreatsiya zonalarini rivojlantirishda Qashqadaryo havzasi shifobaxsh resurslarning ahamiyati // O‘zbekiston Geografiya jamiyati axboroti. 24-jild.-Toshkent, 2003. –B.108-109
9. Хаеркему.Концепсия устойчивого развития туризма в заповеднике Канас Текст // Хаеркему: Экономика, 2000.-36-40 с.
10. Xoshimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi. Oliy o‘quv yurt talabalari uchun qo‘llanma – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxona nashriyoti, 2005. – 277-304 b.
11. Qo‘chqorov B.,G‘.Raximov va b.q. Sayohatni tashkil qilish. O‘quv-metodik qo‘llanma. -T.: “ILM ZIYO”, 2008, - 96 b.

Каримов Неъмат Холйигитович
Наманганский Государственный Университет Факультет Физической Культуры
заместитель декана по учебной работе
E-mail: karimovnemat@gmail.com

ПОКАЗАТЕЛИ ЭФФЕКТИВНОСТИ РЕЗУЛЬТАТОВ ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНОЙ ПРОВЕРКИ В ФОРМИРОВАНИИ НАВЫКОВ ЭКСТРЕМАЛЬНЫХ И СПОРТИВНЫХ ВИДОВ ТУРИЗМА У СТУДЕНТОВ

Аннотация: В данной статье анализируются показатели эффективности результатов экспериментального тестирования в формировании умений, связанных с экстремальным туризмом и спортом у студентов. На основе полученных результатов даны выводы и практические рекомендации.

Ключевые слова: учебно-полевая практика, туризм, спортивный туризм, экстремальный туризм, опыт-апробация.

Karimov Ne'mat Kholyigitovich
Namangan State University Faculty of Physical Culture
deputy dean for academic affairs
E-mail: karimovnemat@gmail.com

EFFECTIVENESS INDICATORS OF EXPERIMENTAL TEST RESULTS IN FORMING THE SKILLS OF EXTREME AND SPORTS TYPES OF TOURISM IN STUDENTS

Annotatsiya: In this article, the effectiveness indicators of the experimental test results in the formation of skills related to extreme tourism and sports in students are analyzed. Conclusions and practical recommendations are given based on the obtained results.

Key words: educational field practice, tourism, sports tourism, extreme tourism, experience-testing